



## O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING QIYOSIY TADQIQI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi  
1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8063806>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 20<sup>th</sup> June 2023

Online: 21<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

Ot, semantik, grammatik, predmet, konkret, abstrakt, turdosh, atoqli.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot so'z turkumining qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

So'zlarni turkumlashda bir necha mezonlar hisobga olinadi. Ot so'z turkumiga mansub so'zlar avvalo "pretmetlilik" ma'nosini bildirishi, leksik ma'no mundarijasida "predmet" semasi bor bo'lishi lozim (semantik-grammatik mezon) Bu yerda predmetlilik ma'nosi keng tushuniladi<sup>1</sup>.

Ot so'zlar leksik - grammatik guruhlariga o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida deyarli bir xil ajratiladi: turdosh va atoqli otlar, konkret(aniq) va abstrakt(mavhum) otlar, yakka va jamlovchi otlar kabi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pishiq*) (*bola-ребёнок-bala, qush-птица-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su't*), (*yomg'ir-дождь-jawin*), (*daftar-тепрьда'pter, kitob-книга-kitap*), (*majlis-собрание-jiynahs*) ataydi<sup>2</sup>.

O'zbek tilida predmetning nomini (keng ma'noda) bildiruvchi mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi. Ot so'z turkumiga oid so'zlar kim? nima? kimlar? nimalar? qayer? savollaridan biriga javob beradi. Masalan: o'quvchi, san'atkor, folklorshunos – kim?, yer, olov, suv, dengiz – nima?, shahar, joy, o'rin – qayer? kabi. Keng ma'noda predmet ma'nosini ifodalash otning leksik xususiyati hisoblanadi. Predmetlik ma'nosini esa tirik mavjudotlar, yer va osmonga oid narsa va hodisalarning nomlari, o'simliklar nomlari, voqea, hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomlari, o'rin va vaqt nomlari shuningdek, atab qo'yilgan shaxs va predmet nomlarini ifoda etadi. Ot mana shu xususiyati jihatidan ikki tur: turdosh va atoqli otlarga bo'linadi. Bunda turdosh otlar: kitob, vaqt, osmon, yer; atoqli otlar: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nargiza va boshqalar. O'zbek tilidagi otlarga son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalar xos.

<sup>1</sup> Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, 1993. – B. 25.

<sup>2</sup> Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 23.



Rus tilida otlarga rod, son, kelishik kabi grammatik kategoriyalar xos. Bundan tashqari, rus tilida otlar jonli va jonsiz predmetlarni anglatishiga ko'ra ham guruhlanadi. Rus tilida rod kategoriyasi otlarning morfologik belgisi. Bu morfologik belgi, hattoki, bosh kelishikda ham ko'rinib turadi. Rus tilida otlarning son kategoriyasi ancha murakkab lesik-grammatik hodisadir. Rus tilida ham ko'pchilik otlar birlik va ko'plikda ishlatiladi: *стол-столы, телефон-телефоны, книга-книги, тетрадь-тетради*. Shu bilan birga rus tilida faqat birlikda yoki faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar ham mavjud. Masalan: faqat birlikda *жемчуг, сметана, добро, веселье, зверьё, детвора*, faqat ko'plikda *брюки, грабли сливки, опилки, жмурки, выборы, сутки, сумерки*.

Qoraqalpoq tilidagi ot ham o'zbek tilidagiga o'xshab predmetning nomini keng ma'noda bildiruvchi mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi. Otlarning leksik ma'nosiga ko'ra aniq otlar, shaxs va shaxs ma'nosidagi otlar, jonli va jonsiz narsalarni bildiruvchi otlar, shuningdek, his-tuyg'uni, hayolni bildiruvchi otlar kiradi. Qoraqalpoq tilidagi otlarga son, egalik va kelishik kabi grammatik kategoriyalar xos.

O'zbek va qoraqalpoq tilidagi otlarga egalik kategoriyasi xos, bunday grammatik kategoriya rus tilida yo'q. Aksincha rus tilidagi otlarga rod kategoriyasi xos, o'zbek va qoraqalpoq tilidagi otlarga bunday grammatik kategoriya xos emas. Quyida otlarning grammatik kategoriyalarini har 3 tilda ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida grammatik rod kategoriyasi yo'q. Otlarning turli jins vakillariga va narsalarga aytilishiga ko'ra (*ota-ona, yigit-qiz, yosh-qari sigir-ho'kiz*) zidlanishi leksik harakterga ega bo'lib, hechqanday rodlarga bo'linmaydi va bu so'zlarning grammatik o'zgarishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Rus tilida rod kategoriyasi otlarning morfologik belgisi. Bu morfologik belgi, hattoki, bosh kelishikda ham ko'rinib turadi.

Qoraqalpoq tilida otlarda rod kategoriyasi yo'q. Otlarning turli jins vakillariga va narsalarga aytilishiga ko'ra (*ata-ana, jigit-qiz, batir-qorqaq, siyir-o'giz*) zidlanishi leksik harakterga ega bo'lib, hechqanday rodlarga bo'linmaydi va bu so'zlarning grammatik o'zgarishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlar birlik va ko'plik sonda keladi.

O'zbek tilida ko'plik **-lar** affiksini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: kitob-kitoblar, bola-bolalar, barg-barglar, telefon-telefonlar.

O'zbek tilida **-lar** affiksi odatda predmetlarning ko'p va xilma-xilligini ta'kidlaganda ishlatiladi. Masalan: Ertalab ko'pchilik ishchilar ishga, o'quvchilar esa maktabga shoshilishardi. Bozordagi do'konlarga ko'p yangi va sifatli narsalar kelgan.

Rus tilida otlarning son kategoriyasi ancha murakkab lesik-grammatik hodisadir. Rus tilida ham ko'pchilik otlar birlik va ko'plikda ishlatiladi: *стол-столы, телефон-телефоны, книга-книги, тетрадь-тетради*. Shu bilan birga rus tilida faqat birlikda yoki faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar ham mavjud. Masalan: faqat birlikda *жемчуг, сметана, добро, веселье, зверьё, детвора*, faqat ko'plikda *брюки, грабли сливки, опилки, жмурки, выборы, сутки, сумерки*.

Qoraqalpoq tilida ko'plik **-lar, -ler** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: (*kitap-kitaplar, usta-ustalar, ku'n-ku'nler, gu'l-gu'ller*). Qoraqalpoq tilida oxirgi bo'g'ini jarangli bo'lsa **-lar**, jarangsiz bo'lsa **-ler** qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: kitap-lar, etik-ler. O'zbek



tilidagi egalik kategoriyasi bir predmetning ma'lum shaxsga yoki ikkinchi bir predmetga qarashli ekanligini yoxud munosabatini bildiradi. Bunday grammatik ma'no so'z negiziga maxsus egalik affiksini qo'shish bilan ifodalanadi:<sup>3</sup>

Shaxslar	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-(i)m opam, yurtim	-(i)miz opamiz, yurtimiz
II shaxs	-(i)ng opang, yurting	-(i)ingiz opangiz, yurtingiz
III shaxs	-i, -si opasi, yurti	-i, -si(lari) opasi(lari), yurti(lari)

Rus tilida egalik ma'nosini ifodalaydigan maxsus affikslar yo'q. Egalik ma'nosi rus tilida egalik olmoshlari orqali ifodalanadi (o'zbek va qoraqalpoq tillarida egalik olmoshlari yo'q). Egalik olmoshlari boshqa so'zlar bilan birikib kelganda aniqlanmish so'z bilan rod, son, kelishikda moslashadi:

I shaxs: мой отец – otam, a'kem; моя школа – maktabim, mektebim; мое письмо – xatim, xatim;

II shaxs: твой отец – otang, a'ken'; твоя школа – maktabing, mektebin'; твое письмо – xating, xatn';

III shaxs: его(ее) отец – otasi, a'kesi; его(ее) школа – maktabi, mektebi; его(ее) письмо – xati, xati.

Qoraqalpoq tilida ham o'zbek tilidagidek, narsaning bir shaxsga yoki narsaga tegishli ekanligini bildiradigan kategoriya **egalik (tartim) kategoriyasi** deb ataladi. Egalik qilingan ot orqali narsaning qaysi shaxsga tegishli ekanligi ham uning qaysi sonda ekanligi bildiriladi<sup>4</sup>.

Bet	Birlik san	Ko'plik san
I	-im/-im mektebim	-miz/-miz mektebimiz
II	-in'/-in' mektebin'	-in'iz/-in'iz mektebin'iz
III	-i/-i mektebi	-i/si -mektebi

Xulosa qilib aytganda, ot har 3 tilda ham predmet ma'nosini bildiradi. o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi otlarga egalik, son va kelishik kategoriyalar xos. Rus tilidagi otlarga ega rod, son, kelishik, jonli va jonsiz predmetlarni anglatuvchi kategoriyalar xos hisoblanadi. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi otlarda rod kategoriyasi yo'q. Bu tildagi otlarga egalik kategoriyasi xos. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi rod kategoriyasining yo'qligi tilni o'rganishdagi ma'lum bir murakkablikni yo'q qiladi. Lekin, noqulayliklarni ham keltirib chiqaradi. Rus tilidagi rod kategoriyasining qulayligi esa, bu tildagi aniqlikni keltirib chiqaradi. Grammatika qiyin bo'lganligi bilan, tildagi rang-baranglikni o'zida mujassam etadi.

## References:

1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965.
2. Da'wletov A va boshqalar Ha'zirgi qoraqalpoq a'debiy tili. No'kis, 2010.
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, 1993.

<sup>3</sup> Azizov O va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent, 1965. - B.38.

<sup>4</sup> Da'wletov A va boshqalar. Ha'zirgi qoraqalpoq a'debiy tili. – No'kis, 2010. - B. 97.